

FAOLIYAT VA UNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Uzaqbayeva Surayyo

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Inson zoti tabiatan faoldir. Chunki tirik insonda har doim ehtiyoj tinmasdan paydo bo'ladi va bu ularni faollikka chorlaydi. Ular ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi.

Har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi.

Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator omillar mavjud.

Insonda maqsad bo'lsa ehtiyoj bo'lsa albatta faoliyat hukm suradi. Mana shu faoliyat insonni yanada kuchli yanada harakatni rivojlantirishga yordam beradi. ta'riflangan.

Faoliyat - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligidir.

Faoliyatning tuzilishi: Inson faoliyatgayo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda turli harakatlar qilib xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin kompyuterni tokka ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglatuvchi matn paydo boladi. Insonda harakatsiz hech narsa amalga oshmaydi. Mana shu o'ylagan niyat va orzularga harakat va faoliyat orqali erishiladi.[1, 77-b]

Faoliyatni o'zlashtirish va malaka hosil qilish: Odatda, harakatlarning anglangan yoki anglanmagan tarzda amalga oshishi holatlari kuzatiladi. Harakatni bajarishda ong borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayi ishni amalga oshirish avtomatlasha boshlaydi, ayrim mayda-chuydaq ismlarga nisbatan e'tibor kamayadi. Shuning uchun inson faoliyatida maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi. Shu bois harakatlarni boshqarish bilan sa'y-harakatlarni boshqarishni aynan bir narsa deb bo'lmaydi. Harakatni amalga

oshirishda ongli boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Odam ongli reja tuzadi, maqsadlar qo'yadi va ongli o'ylagan holda harakatni boshlaydi.

Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi: Ob'ektlar bilan hodisalar o'rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlarni ob'ektlarning muhim xususiyatlari deb yuritiladi. Bu ularning kelajakda qay darajada o'zgarishi va shu maqsadga muvofiq ish tutish, ya'ni ob'ekt va hodisalarning "xatti-harakatlari"ni oldindan ko'ra olish imkoniyatini beradi. Tashqi, ya'ni buyumlar bilan qilinadigan bunday holda go'yo ichki, ya'ni ildam faoliyatni oldindan payqab olinadi. Ob'ekt (narsa) ustida qilinadigan konkret ishlar bu ob'ektlarning muhim xususiyatlari ustida qilinadigan operatsiyalar bilan, ya'ni ideal (psixik) ishlar bilan almashinadi. Boshqacha qilib aytganda, narsalar bilan jismoniy tarzda qilinadigan ishlar shu narsalarning mazmuni bilan almashinadi. Inson ichki dunyosida o'ylaydi va amalga oshiradi va bu ichkidan tashqiga o'tish hisoblanadi. [2, 57-b]

Tashqi real ishdan ichki ideal ishga mana shunday o'tish jarayonini interiorizatsiya deb yuritiladi (ichki ishga aylanadi). Odamning ichki dunyosi paydo bo'lgandan so'ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichida o'ylab so'ngra amalga oshiradi. Oldin ichida o'ylab, so'ngra bevosita tashqi munosabatga o'tishi faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb yuritiladi.[3, 67-b]

Xulosa qilib aytganda bu dunyoda har bir inson o'zining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda qizishlarini hisobga olgan holda niyat, orzu qiladi va shunga monand faol harakat qiladi. Odamlarda hech qachon ehtiyoj, xohish tamom bo'lmaydi. Mana shunday ehtiyojlar bolani uchun ham har doim faollikda bo'ladi. Bu faollik harakat orqali amalga oshiriladi ya'ni faollik va mehnat, harakat chambarchas bog'liqdir. Har bir ishning maqsadnibg ortida harakat qiyinchilik, to'siqlar turadi bularni yengib o'tish uchun insondan kuch, sabr, mustahkam iroda talab qilinadi. Hech narsaga harakatsiz erishib bo'lmaydi. Har doim faol insonlardan energiya olamiz va boshqalarni ham faollikga chorlaymiz. Shuni ham hisobga olish kerak ki birgalikdagi faoliyat tushunchasi ham katta ahamiyatga egadir. Birgalikdagi faoliyat yangi ixtiro, yangi g'o'yalar, yangi fikrlar ostida jamlanadi. Insonlar orasida birgalikdagi faoliyat bo'ladimi, individual faoliyat bo'ladimi hech qachon maqsadlar qo'yishdan, ularga erishish yo'lidan to'xtamaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Toshkent-2010-y 77-b.
2. Go'ziyev E.G', Psixologiya. Toshkent -2008- y 57-b.
3. Xaydarov F.I., Xalilova N.I., Umumiy psixologiya.Toshkent 2009-y 67-b.